



“TASDIQLAYMAN”

Bosh/direktor o‘rinbosari

Qus

Q.X. Taparov

09.01.2025-yil

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJning Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish JURNALI

2024-yil 31-dekabr holatiga (1.2.4.2)

T/r	Monitoring / tadbir turi	Chora-tadbirlarni monitoring qilish davriyligi (har chorakda/har yarim yilda/doimiy)	Monitoring / nazoratni o‘tkazish sanasi	Kuzatuvni tafsiloti	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini to‘g‘rilash choralari	Mas’ul ijrochi	To‘g‘rila nadigan chora-tadbirlar ning ijro muddati	Ijro holati
Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yetarliligini baholash								
I.	Idoraviy-korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining aktualligi va uning qonunchilik talablari, shu jumladan xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini monitoring qilish	Doimiy ravishda	2024-yil 15-25-yanvar	“NKMK” AJda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan va ularning so‘roviga ko‘ra yuboriladigan hujjatlar loyihalari, Bosh direktor va bosh direktor o‘rinbosarlari qabullari yakuni bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar loyihalarini korrupsiyaviy va huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi qonuniyligi	“NKMK” AJda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan va ularning so‘roviga ko‘ra yuboriladigan hujjatlar loyihalari, Bosh direktor va bosh direktor o‘rinbosarlari qabullari yakuni bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar loyihalarini Bosh yuriskonsult va Komplayens xizmati tomonidan huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizasidan o‘tkazish tartibi joriy etish.	Komplayens xizmati boshlig‘i R.Avezov Bosh yuriskonsult M.Xaitova	2024-yil yanvar	Jamiyatning 2024-yil 24-yanvardagi 44-son buyrug‘iga asosan “NKMK” AJda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan va ularning so‘roviga ko‘ra yuboriladigan hujjatlar loyihalari, Bosh direktor va bosh direktor o‘rinbosarlari qabullari yakuni bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar loyihalarini Bosh yuriskonsult va Komplayens xizmati tomonidan huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizasidan o‘tkazish tartibi ishlab chiqildi.
			2024-yil 1-10-fevral	“NKMK” AJ faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy	“NKMK” AJ faoliyatida ochiq e‘lon qilinishi lozim bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga	Komplayens xizmati boshlig‘i	2024-yil fevral	Jamiyatning 2024-yil 9-fevraldagi 80-son buyrug‘iga asosan “NKMK” AJ faoliyatida

				ahamiyatga molik ma'lumotlarni axborot resusrlarida joylashtirish va yangilab borilishi ahvoli	molik ma'lumotlarni axborot resusrlarida joylashtirish va yangilab borish tartibini belgilash	R.Avezov Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktori X.Raupov		ochiq e'lon qilinishi lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni axborot resusrlarida joylashtirish va yangilab borish tartibi belgilandi.
			2024-yil 15-28-fevral	“NKMK” AJda Manfaatlarni to'qnashuvi holatlarini aniqlash mexanizmini ko'rib chiqish	“NKMK” AJ Manfaatlarni to'qnashuvini avtomatik ravishda aniqlash tizimini joriy etish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil fevral	Jamiyatning 2024-yil 26-fevraldagi 104-son buyrug'iga asosan “NKMK” AJda Manfaatlarni to'qnashuvini avtomatik ravishda aniqlash tizimini joriy etish to'g'risida tartib belgilandi.
			2024-yil 25-mart - 5-aprel	“NKMK” AJda Xaridlar sohasida kelib tushayotgan shikoyatlarni ko'rib chiqish holatlarini tahlil qilish	“NKMK” AJda Xaridlar sohasida kelib tushayotgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibini belgilash	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i M.Amonov	2024-yil mart-aprel	Jamiyatning 2024-yil 1-apreldagi 206-son buyrug'iga asosan “NKMK” AJda Xaridlar sohasida kelib tushayotgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi belgilandi.
			2024-yil 25-mart – 10-aprel	“NKMK” AJda Xaridlarni amalga oshirish sohasida mas'ul xodimlarning vazifalarini tahlil qilish	“NKMK” AJda Xaridlarni amalga oshirishda qonunbuzilish holatlarining oldini olish maqsadida mas'ul xodimlarni vazifalarini belgilash	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Xaridlarni tashkil etish va metodologiyasini takomillashtirish bosh boshqarmasi boshlig'i M.Amonov	2024-yil mart-aprel	Jamiyatning 2024-yil 4-apreldagi 221-son buyrug'iga asosan “NKMK” AJda Xaridlarni amalga oshirishda qonunbuzilish holatlarining oldini olish maqsadida mas'ul xodimlarni vazifalari belgilandi.
			2024-yil	“NKMK” AJning	“NKMK” AJ xodimlarining	Komplayens	2024-yil	Kuzatuv kengashining 2024-yil

			1-10-iyun	Odob-axloq kodeksini amaldagi qonunchilik talablari asosida qayta ko'rib chiqish	Odob-axloq kodeksini yangi tahrirda qabul qilish	xizmati boshlig'i R.Avezov	iyun	7-iyundagi 4-son bayoniga asosan "NKMK" AJ xodimlarining Odob-axloq kodeksi yangi tahrirda qabul qilindi.
			2024-yil 1-10-iyun	"NKMK" AJning Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatini amaldagi qonunchilik talablari asosida qayta ko'rib chiqish	"NKMK" AJning Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatini yangi tahrirda qabul qilish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil iyun	Kuzatuv kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-son bayoniga asosan "NKMK" AJning Korruptsiyaga qarshi kurashish siyosati yangi tahrirda qabul qilindi.
			2024-yil 1-10-iyun	"NKMK" AJdagi Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Nizomni amaldagi qonunchilik talablari asosida qayta ko'rib chiqish	"NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish to'g'risidagi Nizomni yangi tahrirda qabul qilish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil iyun	Kuzatuv kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-son bayoniga asosan "NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish to'g'risidagi Nizom yangi tahrirda qabul qilindi.
			2024-yil 1-10-iyun	"NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to'g'risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish Reglamentini amaldagi qonunchilik talablari asosida qayta ko'rib chiqish	"NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to'g'risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish Reglamentini yangi tahrirda qabul qilish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil iyun	Kuzatuv kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-son bayoniga asosan "NKMK" AJ va uning tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali korruptsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to'g'risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish Reglamenti yangi tahrirda qabul qilindi.
Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini baholash								
2.	OAV monitoringi	Doimiy ravishda	2024-yil fevral	Facebook ijtimoiy tarmog'ida "Pistali" koni xodimlarining tushlikka chiqish jadvaliga o'zgartirish kiritilganligidan norozilik holati aks etgan xabarning tarqatilishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Kadrlar boshqarmasi boshlig'i O.Raxmatov	10 kun muddat	Ishchi guruh tomonidan uning sabablari o'rganib chiqildi. O'rganish jarayonida bir qator kamchiliklar aniqlanib, bartaraf etildi va tegishli rahbar xodimlarga nisbatan o'rnatilgan tartibda chora ko'rildi.
			2024-yil mart	Telegram messenjerida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati"	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida	Jamoatchilik bilan aloqalar	10 kun muddat	Ishchi guruhi tomonidan murojaat muallifi bilan joyida murojaat o'rganib chiqilib, murojaat

				AJning Shimoliy kon boshqarmasida majburiy obuna tashkil etilganligi bo'yicha xabarining tarqatilishi holati	o'rganish	bo'yicha direktor X.Raupov Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Ishchi guruh		qisman asosli deb topilib, tegshli xodimga (U.Badalovga) nisbatan intizomiy jazo chorasi qo'llanildi va muallifga javob xati jo'natildi.
			2024-yil mart	Facebook ijtimoiy tarmog'ida "Marjonbuloq" konida 2024-yil yanvar oyida ro'y bergan baxtsiz hodisa haqida aks etgan xabarning tarqatilishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bosh boshqarmasi A.Tursunov Ishchi guruh	10 kun muddat	Ishchi guruhi tomonidan bu kabi holatlar oldini olish maqsadida, ishchi-xodimlar o'rtasida muhokama qilinib, xavfsizlik texnikasi qoidalariga qat'iy amal qilish yuzasidan targ'ibot ishlari olib borildi.
			2024-yil iyun	Facebook ijtimoiy tarmog'ida Shimoliy kon boshqarmasining sobiq direktori faoliyati bilan bog'liq tanish-bilishchilik va qarindosh-urug'chilik mazmunga ega axborotning tarqalishi holati	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Ishchi guruh	20 kun muddat	Ishchi guruhi tomonidan o'rganish o'tkazildi. Natijada ayrim vajlar o'z tasdigini topdi va tegishli mas'ullarga ularni bartaraf etish bo'yicha topshiriq berildi. Mualliflarga javob xati yuborildi.
			2024-yil sentabr	Facebook ijtimoiy tarmog'ida bir guruh fuqarolar tomonidan Shimoliy kon boshqarmasida 2024-yil sentabr oyida og'ir yuk tashuvchi avtomobil haydovchisi kasbiga tanlov o'tkazilganligi, tanlovda ulardan biror bir kishi ishga qabul qilinmaganligi to'g'risida xabarlar tarqalishi holati.	"NKMK" AJ mas'ul xodimlari ishtirokida ishchi guruh tuzish va joyida o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Ishchi guruh	10 kun muddat	Ishchi guruhi tomonidan o'rganish o'tkazildi. Natijada Joriy yilning 10-11-sentabr kunlari Shimoliy kon boshqarmasida tanlov o'tkazilib, unda 444 nafar nomzod ishtirok etgan. Ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan fuqarolardan 29 nafari ushbu tanlovda qatnashib, ulardan 3 nafari ijobiy natijaga erishgan. Shu haqida mualliflarga javob xati yuborildi.
3.	Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi	Har yarim yilda	2024-yil fevral - dekabr	Jamiyat xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligini	Jamiyat markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalari xodimlarining korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligini	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil fevral – dekabr	Komplayens xizmati tomonidan "NKMK" AJda xodimlarning korrupsiyaga qarshi asosiy talablar va tartib-taomillardan xabardorligi yuzasidan 2024-yilda

	monitoringi			monitoring qilish	joyiga chiqqan holda monitoring qilish			6 marotaba monitoring o'tkazilgan. Monitoringda 4 498 ta ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlangan.
			2024-yil fevral - dekabr	Jamiyat xodimlari orasida korrupsiyaviy xafv-xatarlar to'g'risida axborot olish hamda korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi haqida so'rov o'tkazish	Jamiyat xodimlari orasida anonim so'rov o'tkazish natijasida korrupsiyaviy xafv-xatarlar to'g'risida axborot olish hamda korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va 68 talablardan xabardorligi haqida monitoring o'tkazish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil fevral – dekabr	Komplayens xizmati tomonidan 2024-yil fevral-dekabr oylari davomida 6538 ga yaqin jamiyat xodimlari o'rtasida anonim so'rovlar va monitoring o'tkazildi. So'rov va monitoring natijasida xodimlarning bilimi hamda jamiyatdagi korrupsiyaviy holatlar tahlil qilindi. Ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rildi.
			2024-yil yanvar – dekabr	“NKMK” AJ xodimlarini korrupsiyaga qarshi asosiy tamoyil va talablardan xabardorligi yuzasidan amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarni doimiy ravishda targ'ib qilish ahvoli	Ish reja asosida “NKMK” AJ xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan amaldagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlarni mazmun mohiyatini tushuntirish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha direktor X.Raupov	2024-yil yanvar – dekabr	2024-yil davomida 138 marotaba (jumladan, 105 ta seminar, uchrashuv va davra suhbat, 26 marotaba rasmiy veb saytda, 2 ta gazeta, 3 marotaba televideniya, 2 marotaba radio) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida 8478 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.
4.	Korrupsiyaga qarshi dasturlar, yo'l xaritalari ijrosi ustidan nazorat 2024-yil davomida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan	Har chorakda	2024-yil yanvar – fevral	“NKMK” AJda Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni o'tkazish	“NKMK” AJning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha dastur tasdiqlash	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – fevral	Kombinatning markaziy apparati va barcha tarkibiy bo'linmalarida 2024-yil 1-choragida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra, 947 ta funksiyalar baholanib, shundan 3 ta “yuqori”, 45 ta “o'rta” va 899 ta “past” darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024-yil 20-fevralda 46 ta banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Bugungi kunda dasturning 33 ta bandi ijrosi ta'minlandi va qolgan bandlarining ijrosi nazoratga olindi. Dastur ijrosi natijasida 22 ta yo'nalish tartibga solindi va 11 ta yo'nalish avtomatlashtirildi.

	chora-tadbirlar dasturi							Xususan Dasturning 10-bandi ijrosi yuzasidan 2024-yil 17-aprelda Kombinatda mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini hisobga olish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi (https://tb.ngmk.uz/) joriy etildi.
			2024-yil davomida	Kombinatda qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar (yoki loyihalar)ni qonuniyligini tahlil qilish	Kombinatda qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar (yoki loyihalar)ni korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Komplayens xizmati tomonidan jami 7 121 ta (6 164 ta buyruq va 957 ta farmoyish) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida 516 ta ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.
			2024-yil davomida	Kombinat ishchi-xodimlariga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni targ'ibot qilish va o'quv seminar mashg'ulotlarini tashkil etish	Ishchi-xodimlarga Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq qoidalari hamda boshqa normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarni joyiga chiqqan holda targ'ibot qilish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – Dekabr	2024-yil yanvar - dekabr oylari davomida 138 marotaba (jumladan, 105 ta seminar, uchrashuv va davra suhbat, 26 marotaba rasmiy veb saytda, 2 ta gazeta, 3 marotaba televideniya, 2 marotaba radio) huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida 8478 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi.
			2024-yil davomida	“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun talablari ijrosi	“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, Xarid komissiyasi a'zosi sifatida xarid hujjatlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda kelishish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Xaridlar sohasida “Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha” Komissiyasi (komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan) tomonidan 8 ta tender va 26 ta tanlash hujjatlari bo'yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko'rib chiqilib, qonuniylik ta'minlandi. Xizmat tomonidan Kombinat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo'lgan 19 095 ta kontragentlarning faoliyati tekshirildi.

							Shuningdek, hisobot davrida 1 ta 3,5 mlrd. so'mlik tanlovning asossiz bekor qilinishi oldi olindi.
		2024-yil davomida	Kombinatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha rasmiy veb-saytda tegishli ma'lumotlarni joylashtirilishini doimiy nazorat qilish	Kombinatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha rasmiy veb-saytda tegishli ma'lumotlarni normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarda (PF-6247, PF-154, 07.02.2022 yildagi 84-buyruq, 06.12.2022 yildagi chora-tadbirlar rejasi) ko'rsatilgan muddatlarda joylashtirish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 154-son Farmoni ijrosi yuzasidan tegishli ma'lumotlarning belgilangan muddatlarda Kombinatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda. Kombinatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portal (kombinat xodimlari uchun joriy etilgan)da joriy etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish" va "Ochiq ma'lumotlar" bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (ishonch telefoni va elektron pochta) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilgan hamda ushbu ma'lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.
		2024-yil davomida	O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi agentligi tomonidan olib boriladigan "Ochiqlik indeksi"da Kombinatning 2023 yildagi (76.2 ball) erishgan natijasini yaxshilash choralari ko'rish	Kombinatda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha rasmiy veb-saytda tegishli ma'lumotlarni normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarda ko'rsatilgan muddatlarda joylashtirish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Kombinat ochiqlik darajasini oshirish bo'yicha tegishli ma'lumotlar belgilangan muddatlarda Kombinatning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi ta'minlanmoqda. Kombinatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurashish" va "Ochiq ma'lumotlar" bo'limlarida ichki idoraviy hujjatlar, e'lon qilinishi belgilangan ma'lumotlar,

							murojaatlarni yuborish uchun tegishli (ishonch telefoni va elektron pochta) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens xizmatining mas'ul xodimlari to'g'risidagi ma'lumotlar joylashtirilgan hamda ushbu ma'lumotlar doimiy yangilanmoqda.
		2024-yil davomida	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingida Kombinatning 2023-yildagi (64 ball) erishgan natijasini yaxshilash choralari ko'rish	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash reytingini yaxshilash choralari ko'rish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qaroriga ko'ra, 2024-yil bo'yicha 29 turdagi ma'lumot va hisobotlar hamda ularni tasdiqlovchi hujjatlar "E-Anticor.uz" elektron platformasiga kiritildi.
		2024-yil davomida	Odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida ishtirok etish va tegishli takliflar berish	Kombinada va uning tarkibiy bo'linmalarida tashkil etilgan odob-axloq komissiyasi yig'ilishlarida ishtirok etish va tegishli takliflar berish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Kombinat va uning tarkibiy bo'linmalarida tashkil etilgan Odob-axloq komissiyalarining 20 ta (Markaziy apparatda 7 ta, NMZda 7 ta, ShKBda 1 ta, MKBda 1 ta, Qizilqumda 2 ta, JKBda 1 ta, ZQB 1 ta) yig'ilishlarida ishtirok etildi. Natijada komissiyada ko'rilgan ishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar taqdim etildi.
		2024-yil sentabr	Kombinat markaziy apparati uchun ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari" xalqaro standartini olish.	Kombinatda ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimlari" xalqaro standartini joriy etishda barcha ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish, kombinat hujjatlarini standart talablariga muvofiqlashtirish, ichki va tashqi auditdan o'tkazish va hujjatlarni standart talabi bo'yicha sertifikat olish maqsadida vakolatli organga taqdim etish.	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	2024-yilda Kombinat Markaziy apparati "SERT International" xalqaro sertifikatlovchi tashkilot tomonidan o'tkazilgan 2 bosqichli tashqi audit yakuni bo'yicha ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi" xalqaro standart talablariga muvofiqligi tasdiqlandi va xalqaro sertifikatga ega bo'ldi.

			2024-yil davomida	Kombinat tizimida manfaatlar to'qnashuvini holatlarini oldini olish, aniqlangan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rish	Kombinat tizimida manfaatlar to'qnashuvini holatlarini oldini olish, aniqlangan holatlarni bartaraf etish choralarini ko'rish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Kombinatda 5 499 nafar boshqaruv xodimlaridan yillik deklaratsiya to'ldirildi. O'tkazilgan monitoringlar natijasida 148 ta manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanib, shundan, 46 ta mavjud hamda 102 ta ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlandi va ularni bartaraf etish bo'yicha Odob-axloq komissiyalari tomonidan tegishli tartibda qarorlar qabul qilindi.
			2024-yil davomida	Komplayens xizmati xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida xalqaro seminar, trening va malaka oshirish kurslarida o'qitish	Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida seminar, trening va malaka oshirish kurslarida o'qitish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar – dekabr	Xizmat xodimlari tomonidan jami 30 marotaba shundan, 17 marotaba onlayn va 13 marotaba an'anaviy malaka oshirish kurslarida ishtirok etildi. Jumladan, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish akademiyasi (International Anti-Corruption Academy)ning "Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun xabar berish tizimi" yo'nalishida 8 ta, Xalqaro komplaens tizimini joriy etish yo'nalishida 8 ta, AQShdagi Pensilvaniya universitetining "Komplaensning boshlang'ich asoslari", "Komplaens dasturlarini samarali ishlatish", "Maxfiy hujjatlar va ma'lumotlarni himoya qilish" yo'nalishida 5 ta va "AQSh va Yevropa ittifoqining Rossiyaga qarshi sanksiyalar va eksport nazorati" yo'nalishida 1 ta va boshqa yo'nalishlar 8 ta sertifikatlar olindi.
			2024-yil noyabr-dekabr	"9 dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish munosabati bilan Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish o'tkazish.	"NKMK" AJ faoliyatining ochiqligini, jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini ta'minlash, korrupsion xatarlarning oldini olish, bartaraf etish, xodimlarning mazkur sohada huquqiy ongi va madaniyatini	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil noyabr-dekabr	"NKMK" AJning 2024-yil 15-noyabrdagi 299-sonli farmoyishiga asosan Jamiyatning Markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" hamda "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlari joriy yilning 20-noyabr kundan 20-dekabr

					oshirish yuzasidan Jamiyatning Markaziy apparati, tarkibiy bo'linmalarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" hamda "Ochiq eshiklar kuni" tadbirlarini o'tkazish.			kuniga qadar o'tkazildi. Oylik doirasida 10 marotaba targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida jami 950 nafar ishchi-xodimlar ishtiroki ta'minlandi. Shu bilan birga 3 marotaba rasmiy veb saytda chiqishlar qilindi. Bundan tashqari, Kombinat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning jamoatchilik va fuqarolar oldida hisobdorligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari vakillari va korxona ishchi-xodimlari ishtirokida 2024-yil 18-noyabr kuni "NKMK" AJ Markaziy apparati binosida brifing o'tkazildi.
5.	Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha talablar va tartib-taomillarga rioya etilishi ustidan nazorat rejasi	Har chorakda	2024-yil yanvar	Nazorat rejaning 1-bandi bo'yicha "NKMK" AJ kon-transport va temir yo'l texnikalarining ichki yonuv dvigatellarida o'rnatilgan ehtiyot qismlarni samarali ishlatilishini tanlov asosida o'rganish	"NKMK" AJ tarkibiy bo'linmalarida kon-transport va temir yo'l texnikalarining ichki yonuv dvigatellaridaning ehtiyot, butlovchi qismlari va agregatlarining xizmat muddatini ular o'rnatilgan paytdan boshlab hisobdan chiqarilgunga qadar ishlatilish vaqtini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil yanvar	"NKMK" AJning 2024-yil 25-yanvardagi 11-sonli farmoyishiga asosan "NKMK" AJ tarkibiy bo'linmalarida kon-transport va temir yo'l texnikalarining ichki yonuv dvigatellaridaning ehtiyot, butlovchi qismlari va agregatlarining xizmat muddatini ular o'rnatilgan paytdan boshlab hisobdan chiqarilgunga qadar ishlatilish vaqti o'rganildi. O'rganish natijasida dalolatnoma rasmiylashtirildi. Natijasi yuzasidan "NKMK" AJ rahbariyatiga taklif kiritildi.
			2024-yil fevral-aprel	Nazorat rejaning 2-bandi bo'yicha Geologiya qildiruv ekspeditsiyasida yoqilg'i-moylash mahsulotlarini to'g'ri sarflanishi holatlarini tanlov asosida o'rganish	Geologiya qildiruv ekspeditsiyasidagi burg'ulash mexanizmlari va kon texnikalarinida yoqilg'i-moylash mahsulotlarini to'g'ri sarflanishi va oqilona foydalanish holatlarini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil fevral-aprel	"NKMK" AJning 2024-yil 16-fevraldagi 41-sonli farmoyishiga asosan Geologiya qildiruv ekspeditsiyasidagi burg'ulash mexanizmlari va kon texnikalarinida yoqilg'i-moylash mahsulotlarini to'g'ri sarflanishi va oqilona foydalanish holatlari o'rganildi. O'rganish natijasida dalolatnoma rasmiylashtirildi. O'rganish natijasida

								66146 litr 727 mln. soʻmlik dizel yoqilgʻisi talon taroj qilinganligi aniqlandi. Barcha texshirish hujjatlari huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga joʻnatildi.
			2024-yil mart	Nazorat rejaning 3-bandi boʻyicha “NKMK” AJda xaridlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solish boʻyicha amaldagi qonunchilik talablarini tanlov asosida oʻrganish	“NKMK” AJda xaridlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solish boʻyicha amaldagi qonunchilik talablarini yaʼni ogʻir togʻ-kon uskunalari uchun avtomatik yongʻin oʻchirish tizimlarini taʼmirlash va tiklash xizmatlari xaridini oʻrganish	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2024-yil mart	“NKMK” AJning 2024-yil 14-martdagi 161-sonli buyrugʻiga asosan ogʻir togʻ-kon uskunalari uchun avtomatik yongʻin oʻchirish tizimlarini taʼmirlash va tiklash xizmatlari xaridi boʻyicha tuzilgan shartnomalarning qonuniyligi oʻrganildi. Oʻrganish natijasida dalolatnoma rasmiylashtirildi. Oʻrganish natijasida aniqlangan kamchiliklarga yoʻl qoʻygan ikki nafar masʼul xodimlarga (Raximov va Xalikovlarga) jamiyatning 29.03.2024 yildagi 186-k va 189-k sonli buyruqlari bilan intizomiy jazo choralari qoʻllanildi.
			2024-yil mart	Nazorat rejaning 4-bandi boʻyicha “Navoiy mashinasozlik zavodi” IChBda manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini tahlil qilish orqali oʻrganish	“Navoiy mashinasozlik zavodi” IChBda Oʻzbekiston Respublikasi “Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi Qonuni ijrosi yuzasidan manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini oʻrganish	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2024-yil mart	2024 yil 11 martda “Navoiy mashinasozlik zavodi” IChBda Oʻzbekiston Respublikasi “Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi Qonuni ijrosi yuzasidan manfaatlar toʻqnashuvi holatlarini oʻrganildi. Oʻrganish yakuni bilan maʼlumotnoma rasmiylashtirildi. Oʻrganish natijasi boʻyicha “Navoiy mashinasozlik zavodi” IChB rahbariyatiga bildirgi kiritildi va aniqlangan manfaatlar toʻqnashuvi holatlari bartaraf etildi.
			2024-yil aprel	Nazorat rejaning 5-bandi boʻyicha “NKMK” AJ tomonidan uning taʼsischiligida tashkil etilgan korxonalarga ajratilgan mablagʻlarning qonuniy sarflanishi holatlarini	“NKMK” AJ tomonidan uning taʼsischiligida tashkil etilgan PFK “Qizilqum” MChJga ajratilgan mablagʻlardan oqilona foydalanilishi holatlarini oʻrganish	Komplayens xizmati boshligʻi R.Avezov	2024-yil aprel	“NKMK” AJning 2024-yil 5-apreldagi 99-sonli farmoyishiga asosan PFK “Qizilqum” MChJga ajratilgan mablagʻlardan oqilona foydalanilishi holatlari oʻrganildi. Oʻrganish yakuni bilan maʼlumotnoma rasmiylashtirildi. Oʻrganish natijasida aniqlangan

				o'rganish				kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha PFK "Qizilqum" MChJ Kuzatuv kengashiga ma'lumot kiritildi.
		2024-yil dekabr	Nazorat rejaning 6-bandi bo'yicha "NKMK" AJ tomonidan uning ta'sisshiligidagi tashkil etilgan korxonalarga ajratilgan mablag'larning qonuniy sarflanishi holatlarini o'rganish	"NKMK" AJ tomonidan uning ta'sisshiligidagi tashkil etilgan PFK "Qizilqum" MChJga ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanilishi holatlarini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil dekabr	"NKMK" AJning 2024-yil 10-dekabrda 327-sonli farmoyishiga asosan PFK "Qizilqum" MChJga ajratilgan mablag'lardan oqilona foydalanilishi holatlari o'rganildi. O'rganish yakuni bilan ma'lumotnoma rasmiylashtirildi. O'rganish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha PFK "Qizilqum" MChJ Kuzatuv kengashiga ma'lumot kiritildi.	
		2024-yil dekabr	Nazorat rejaning 7-bandi bo'yicha "NMZ" IChBning avtota'mirlash sexiga qarashli omborxonada mavjud ehtiyot qismlar sarflanishini tanlov asosida o'rganish	"NMZ" IChBning avtota'mirlash sexiga qarashli omborxonada mavjud ehtiyot qismlar sarflanishini o'rganish	Komplayens xizmati boshlig'i R.Avezov	2024-yil dekabr	"NKMK" AJning 2024-yil 13-dekabrda 329-sonli farmoyishiga asosan "NMZ" IChBning avtota'mirlash sexiga mavjud ehtiyot qismlar sarflanishini o'rganildi. Tekshirish yakuni bilan dalolatnoma rasmiylashtirildi. Tekshirish natijasida "NKMK" AJ rahbariyatiga axborot kiritildi.	

Komplayens xizmati boshlig'i

R.F. Avezov